

Biz matbuot erkinligi uchun kurashayapmiz. Bu demokratik rivojlanishning va fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillaridan biridir. Matbuot "to'rtinchchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilar ekan, hech kimga qaram bo'lmasligi kerak, deymiz. Yaxshi. Xo'sh, u kimdan, nimadan va nima uchun erkin bo'lishi kerak?! Matbuot erkinligi haqida gap ketganda, so'zsiz, bu savol hamisha ko'ndalang bo'lib turadi.

Umuman, hech kimga hech qanday daxli bo'lmaydigan ommaviy axborot vositasi bormi o'zi? Bo'lsa jahondagi qaysi telekanalni, radioni, gazeta yoki jurnalni misol qilib ko'rsatish mumkin? Aytaylik, erkin "Ozodlik" radiosи AQSh Kongressidan mablag' oladi. "BI-BI-SI" rahbarini Buyuk Britaniya hukumati tayinlaydi. Yoki Rossiyanı olaylik. "Gazprom", "Lukoyl" va boshqa shular kabi sanoat gigantlariga bir necha ommaviy axborot vositalari qaram. Boqimanda nashrlar hamma mamlakatlarda ham bor.

Xo'sh, mablag' berayotgan idora yoki tashkilot o'sha ommaviy axborot vositasiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi, deb kim ayta oladi?! Bizningcha, hech kim. Hayotda hamisha olgan odam bergan odamning oldida tili qisq bo'lib qoladi. Bu oddiy falsafa. Bu ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham tegishli. Mablag' bilan ta'minlangan idora qanday bo'lmasin o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi? Albatta, matbuotni bunday ta'sirdan faqat qonun himoya qilishi mumkin. Mukammal qonun ommaviy axborot vositalarini ayrim eskicha fikrلайдиган mansabdorlar va amaldorlar, tabiiy monopoliyalar, homiyalar, reklama beruvchilar, matbuot tarqatuvchilar, noshirlar va boshqalarning ta'siridan samarali himoya qila oladi.

Hozir esa bizning mustaqil va erkin nashrlarimiz bilan ularning homiyalari hamda muassislar o'rtasidagi munosabatlar asosan o'zaro majburiyatlar olish bilan kafolatlangan. Eng yomoni, bu majburiyatlar vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Ba'zan esa homiy yoki muassis tomonidan belgilab berilgan reja-dastur, yo'nalish erkin matbuot va erkin jamiyat asoslariga to'g'ri kelmaydi. Agar munosabatlar qonunda ko'rsatilgan tartibda yo'lga qo'yilsa va shundan kelib chiqib majburiyatlar olinsa, matbuotimizning erkinligiga hech qanday g'ov bo'lmaydi. Eng muhim, bu erkinlik qonuniy jihatdan kafolatlanadi hamda himoya qilinadi.

Prezidentimiz O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakkllantirishning asosiy yo'nalishlarini hayotiy misollar va dalil-isbotlar bilan asoslab, tahlil qilib, izohlab berar ekan, inson huquqlari va erkinliklarini, so'z erkinligi va matbuot erkinligini hamda oshkoraliyeng muhim ustivor yo'nalish sifatida alohida ta'kidlab o'tdi. Bunga fuqarolik jamiyat asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida urg'u berar ekan, bu jarayonda davlatning ishtiroti zarurligiga e'tiborni qaratdi. "Barcha ommaviy axborot vositalariga, - dedi Islom Karimov o'tgan chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi ma'rurasida, - mulk shakli, tiraji, qamrovi hamda mavzu yo'nalishidan qat'iy nazar, ularning mamlakatimiz axborot maydonida halol raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun davlat zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Aytish mumkinki, bu - jamiyatni tom ma'noda demokratlashtirish garovidir".

To'g'risi, bu boradagi ishlarning natijasi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Hozir davlat nashrlari bo'lgan gazetalar va jurnallar uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, nodavlat, mustaqil, erkin, xususiy, tijorat hamda tarmoq nashrlari ham xuddi shunday shart-sharoitlarda chop etilayapti. Hech qanday g'ov, to'siq, ta'qiq yo'q. Ba'zan tanish hamkasb uchrab qolib: "Yangi gazeta chiqaryapman" yoki "Bosmaxona ochdim" desa mutlaqo hayratlanmaydigan bo'ldik. Aksincha, kechagina ish izlab yurgan hamkasbimiz bugun mustaqil gazeta chiqarib, boshqalarni ishga taklif etayotganligiga havas qilamiz. Mamlakatimiz axborot maydonida halol raqobat boshlanganiga ancha bo'ldi. Bu raqobat ba'zan obro'li gazetalarni ham dovdiratib qo'yayotganligi bor gap. Oldi-qochdi narsalar bilan mazmun-mohiyatini boy berib qo'yayotgan gazetalar ham yo'q emas. Raqobatga bardosh berolmay chiqmay qolayotgan yoki tiraji kamayib ketayotgan nashrlar-chi?.. Shunday: hozirgi gazetxon tanlab o'qiydi, tanlab xarid qiladi, tanlab obuna bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, hozir gazeta chiqarishni chidaganga chiqargan. Bu fuqarolik jamiyatini shakkllantirishda matbuotni erkinlashtirish jarayonidagi tabiiy holatdir.

Raqobatga bardosh berishning muhim shartlaridan biri, bu - hozirjavoblikdir. Har bir ommaviy axborot vositasi har qanday yangilik, voqeа-hodisa, muhim xalqaro xabarni iloji boricha tez, qisqa va lo'nda berish uchun kurashmog'i zarur. Xabarni birinchi bo'lib tarqatish katta ahamiyatga ega. Birinchi hozirjavoblik va tezkorlikda boshqalarni dog'da qoldirish degan gap. O'sha xabarni keyinchalik boshqa ommaviy axborot vositasi tarqatsa, uning ahamiyati qolmaydi. Esimda, 1999 yilning fevralida Toshkentda terroristik xuruj amalga oshirilganida oradan atigi 18-20 daqiqa o'tib O'zbekiston televideniesi Vazirlar Mahkamasi binosi oldidan olingan videotasvirlarni hamda Prezidentning so'zlarini efirga bergandi. O'shandayoq bor haqiqat aytilgan edi. Shuning uchun ham shov-shuvga va mish-mishga o'rinn qolmadi. O'zbekiston televideniesi ko'rsatgan hozirjavoblik, ya'ni zudlik bilan tarqatgan xabar o'shanda jahondagi barcha yirik axborot agentliklari, telekanallar hamda radioto'lqinlar uchun birinchi ishonchli manba bo'lib xizmat qilgandi.

Demak, hozirjavoblik uchun bizda imkoniyat bor. Biroq ko'pincha negadir shoshmayroq, gap eshitib qolmasmikanmiz, deb hadiksiraymiz, boshqalar bersin-chi, shunga qarab ko'ramiz, deb kutamiz. Men faqat ko'ngilsiz hodisalar haqidagi xabarlarini nazarda tutayotganim yo'q. Hatto xushxabarni, muhim tadbirlarni, dunyo voqealarini berishda ham negadir ehtiyyotkormiz. Bersakmikan yoki yuqorida olsakmikan, deb ikkilanib turamiz. Buni qo'rquv emas, ko'nigmaga aylanib qolgan ichki nazorat deyish mumkin. Ichki nazorat bizga yillar mobaynida o'z hukmini o'tkazib keldi. Endi uni ichimizdan haydab chiqarish uchun kurashyapmiz. Jamiyatimizdagи demokratik o'zgarishlar bizga daldab berayotgan ekan, so'zsiz, biz uni haydab chiqaramiz. Oshkoraliy ham xuddi hozirjavoblikde matbuot erkinligini ta'minlashning muhim shartidir. Oshkoraliy bor joyda erkinlik bo'ladi. Davlat siriga daxldor bo'limgan har qanday voqeа-hodisaning sabablari ochiq aytilishi va bu xalqqa yetkazilishi kerak. Bo'lmasa mish-mishlar o'z-o'zidan uydirmalarga aylanib ketaveradi. Uydirmalar esa vahimani kuchaytiradi. O'z navbatida vahima odamlarning qalbiga g'ulg'ula soladi. Yaxshisi, quvonchli yoki ko'ngilsiz bo'lsin, birorta voqeа-hodisa yuz bersa, shunga daxldor yoki mas'ul odam darhol matbuotda chiqish qilib, yuz bergen holatni xolisona izohlab bersa - olam guliston, hech qanday uydirmaga o'rinn qolmaydi.

Olam tafsilotlarga to'la. Inson ularning oldini olishga ojiz. Falokat oyoq ostida, deyishadi. Davlatdan va tuzumdan qat'iy nazar qaerdadir nimadir bo'lib turadi. Buni yashirishning hojati yo'q. Sobiq ittifoq davrida yashirib faqat mulzam bo'lganimiz qolgan. Hatto tabiiy ofatni ham yashirdik. Vaholanki, xorijning murakkab texnikalari sobiq SSSRning qaerida yer qimirlab, qaerida toshqin bo'lganligini qayd qilib qo'yardi.

Oshkoraliy bilan xolislik egizak. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Gap oshkoraliq haqida borar ekan, misol tariqasida bir voqeani eslab o'tmoqchiman. Yoz kunlarining birida avtobusda Qoraqalpog'istoniga bordim. Gazliga yaqin yerda yo'lning o'ng tomonidagi ochiq joyga pachoqlanib ketgan bitta yuk mashinasini ko'rgazmaga qo'yib qo'yishibdi. Fojia o'sha kuni kechasi yuz beribdi: avtobus bilan yuk mashinasini to'qnashibdi. Juda noxush manzara. O'tgan-ketgan haydovchilar ko'rib ta'sirlanishsin, hushyor tortishsin, saboq olishsin va xulosa chiqarishsin, deb to'qnashgan avtobus bilan yuk mashinasini yo'l bo'yiga qo'yib qo'yishibdi. Bizning avtobusimiz yo'lovchilari to'g'ri qilishibdi, degan xulosaga kelishdi. Bu nafaqat haydovchilarni,

This is not registered version of TotalDocConverter
balliy o'stoshish uchun qidiruvchi programmasi. Tug'ilgani, avtobusimiz haydovchilari ham, biz ham o'ylinib qoldik. Qushday uchib kelayotgan avtobusimiz o'rtacha tezlikka tushib qoldi. Hayot hammaning ko'ziga aziz ko'rinib ketdi. Bunday ko'ngilsiz hodisani ko'rgan har qanday odamda hushyorlik va sergaklik muhrlanib qoladi.

Aytmoqchi bo'lgan gapim shuki, bizning matbuotimizda, ya'ni ko'pchilik o'qiydigan gazetalarimizda bu ko'ngilsiz hodisa haqida xabar bosilmadi. Agar bosilganida edi, undan ta'sirlanib hushyor tortganlar va saboq olganlar soni ko'p marta oshgan bo'lardi. Nazarimda buning hech qanday sir joyi yo'q, bu ikkita beburd haydovchining jinoyatkorona ehtiyoitsizligi oqibatida yuz bergen baxtsiz hodisa. Oshkoraliq sergaklikni va hushyorlikni oshirib, bunday hodisalarning oldini olishga yordam berishi mumkin. Faqat hodisani matbuotda berishda xolislikni unutmasligimiz kerak.

Men ommaviy axborot vositalarimiz faoliyatini kuzatib borar ekanman, o'zbek matbuoti bugun hadik va loqaydlik bekatini ortda qoldirib, demokratiya va erkinlik bekti sari yo'l oldi, deb ishonch bilan ayta olaman. Ayrim gazetalar bu yo'dan ildam bormoqda. Buni ko'rmaslik, sezmaslik mumkin emas. Erkin va teran fikrlaydigan, hayotni haqqoniy va xolisona yoritayotgan jurnalistlar safi tobora kengayib bormoqda. Buni ilg'amaslik, his etmaslik mumkin emas. Biroq xorijdag'i ba'zi hamkasblarimiz buni ko'rib-ko'rmaslikka, bilib- bilmaslikka olishyapti. Aytaylik, bundan o'n-o'n besh yil oldin o'zbek matbuotiga, o'zbek jurnalistlariga qanday tamg'a bosishgan bo'lsa, hozir ham xuddi shunday tamg'a bosishyapti. Yana kimlar deng? Shu o'zimizning matbuotda ishlab, shu yerning tarbiyasini olgan hamkasblar. Xorijning ommaviy axborot vositalariga o'tib ish boshlashlari bilanoq go'yo hammadan aqli, dono, bilarmon va bilimdon bo'lib qolishyapti. Yaqinda "Ozodlik" radiosi ana shunday hamkasblardan bir nechtasini ishdan bo'shatdi. Endi esa ular, aksincha, xorijda haqiqat yo'q ekan, deb bong urishyapti.

Xo'sh, biz kimdan erkinmiz? Biz, avvalo, faqatgina o'z fikrimizning, o'z ko'z qarashlarimizning, o'z tushunchamizning, o'z farosatimizning quli bo'lib qolishdan erkin bo'lishimiz kerak. Biz erkin bo'lar ekanmiz, boshqalarning fikrini ham, boshqalarning tushunchasini ham hurmat qilishimiz zarur. Bizning erkinligimiz boshqalarning erkinligini poymol qilmasligi shart. Erkinlik bobida hech kim mutlaq hakam bo'lolmaydi. Yuqorida men fikrlarimni erkin bayon qildim, demak, mamlakatimizda so'z erkinligi va matbuot erkinligi bobida yaratilgan shart-sharoit buning uchun menga imkoniyat berdi. Aks holda men fikrlarimni bu darajada ochiq aytolmagan va matbuotga yozolmagan bo'lardim.